



YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

MAXSUS SON

MUNDARIJA

12.00.01 – DAVLAT VA HUQUQ NAZARIYASI VA TARIXI. HUQUQIY TA'LIMOTLAR TARIXI

- 6 NURATDINOVA ILMIRA MURATBAYEVNA**
Inson huquqlarini ta'minlashda qonun ustuvorligining ahamiyati
- 14 AMINOV DALERJON ALISHER O'G'LI**
Norma ijodkorligi tushunchasi va uning huquq tizimidagi o'rni
- 20 ГУЛЯМОВ ФИРУЗ РАВШАНОВИЧ**
Совершенствование антикоррупционной экспертизы проектов для принятия законов прямого действия
- 32 ПАЛАЧЕВА МАДИНА БАХТИЁР КИЗИ**
Актуальные проблемы государственной политики в сфере законодательных гарантий прав человека
- 40 БУРХОНОВ ШОХРУХБЕК ШУХРАТБЕК УГЛИ**
Особенности и отличительные черты правовой культуры на современном этапе развития
-
- 46 ASHUROV DILSHOD RUSTAMOVICH**
Yangi O'zbekistonning nufuzi yuksalishida yangi notariatning o'rni
- 51 YUSUPOV SHERZOD ALISHEROVICH**
O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining Konstitutsiyaviy-huquqiy maqomi
- 59 NURMAMATOVA NOILA DONIYOROVNA**
Fuqarolar va yuridik shaxslar tomonidan konstitutsiyaviy sudlov organiga murojaat etishning nazariy va qiyosiy-huquqiy tahlili
- 67 АЗИМОВА НИЛУФАР ПУЛАТЖАНОВНА**
Совершенствование правового механизма оценки эффективности деятельности органов государственной власти в Узбекистане
- 77 JAHONOV SHOHRUH SHUHRAT O'G'LI**
Ommaviy axborot vositalari tomonidan jamoatchilik nazoratini ta'minlashda ayrim xorijiy davlatlar tajribasi
- 85 PARPIXO'JAYEV NUSRATULLO NIG'MATULLO O'G'LI**
Xalq deputatlari kengashlari qarorlarini qabul qilish ochiqligini ta'minlashning huquqiy masalalari

12.00.02 – KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ. MA'MURIY HUQUQ. MOLIYA VA BOJXONA HUQUQI

- 93 KOCHKINOVA HOLIDAXON MAKSU DALI KIZI**
Особенности оценки эффективности органов местного самоуправления
- 101 NASRETDINOVA OLTINOY PO'LATOVNA**
Davlat hokimiyati organlari rahbarlari faoliyati samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar
- 107 SALAYDINOV UMID MUHIDDIN O'G'LI**
Prokuratura organlari va vakillik organlarining o'zaro munosabatlari bo'yicha xalqaro tajribaning tahlili
- 112 QOSHJANOVA DARIXA SMETOVNA**
Ma'muriy organlarning qarorlari ustidan shikoyat qilish tushunchasi, o'ziga xos xususiyatlari
- 120 ATADJANOV TIMUR ATABAEBICH**
Критерии оценки деятельности партийных групп представительных органов государственной власти на местах

**12.00.03 – FUQAROLIK HUQUQI.
TADBIRKORLIK HUQUQI.
OILA HUQUQI.
XALQARO XUSUSIY HUQUQ**

- 129 QO'CHQOROV ABBOSJON BAHROMJON O'G'LI**
Muallifning mulkiy huquqlarini jamoaviy boshqaruvchi tashkilotlarning huquqiy maqomi: O'zbekiston va xorij misolida
- 135 RASULOV ASLIDDIN NURIDDINJON UGLI**
Вопросы либерализации деятельности СМИ в условиях развития Республики Узбекистан
- 141 SOBITXONOV JOXONGIR ZUNNURXON Y'GLI**
Ислом банклари ва улар томонидан кўрсатиладиган хизматларнинг ўзига хос жиҳатлари
- 151 UTAYEVA MOHIPARI SHAXRIYOROVNA**
Raqamli bozorda ustun (monopol) mavqeni suiiste'mol qilish muammolari: xorijiy tajriba
- 158 NAEEM ALLAH RAKHA**
Governance of digital economy

**12.00.04 – FUQAROLIK PROTSESSUAL
HUQUQI.
XO'JALIK PROTSESSUAL HUQUQI.
HAKAMLIK JARAYONI VA MEDIATSIYA**

- 163 NORBOYEV JO'RABEK ERKIN O'G'LI**
Fuqarolik sudlarida nizolarni hal qilishda qonuniy vakillik: maqomi, asoslari va tartibi
- 170 XOLIQOV SHOHRUX IKROMALI O'G'LI**
Xorijiy davlatlarda oilaviy mediatsiya institutining qiyosiy huquqiy tahlili

12.00.08 – JINOYAT HUQUQI.
HUQUQBUZARLIKLARNING OLDINI
OLISH. KRIMINOLOGIYA.
JINOYAT-IJROIYA HUQUQI

- 178 **ABDURAYIMOV SARDORJON QAHRAMON O'G'LI**
Shaxsning aybdorlik masalasini hal qilmasdan
jinoyat ishini tugatish tartibi
- 183 **TILLAYEV DO'STMUHAMMAD NE'MATJON O'G'LI**
Jazo tayinlashning umumiy asoslari: tahlil va taklif
- 190 **DJUMABAYEVA GULNAZA DJANABAYEVNA**
Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligida jinoyatchi
shaxsining umumiy tavsifi
- 195 **МАМАДЖАНОВА САБИНА УЛУГБЕК КИЗИ**
Ответственность за stalking в некоторых
зарубежных странах
- 204 **СУЛТОНОВА ЛОБАР МАМАРАЙИМ КИЗИ**
Институт освобождения несовершеннолетних
от уголовной ответственности или наказания
в англосаксонской правовой семье

12.00.10 – XALQARO HUQUQ

- 213 **МУСУРМАНОВ ИСКАНДАР УБАЙДУЛЛАЕВИЧ**
Некоторые правовые вопросы применения
блокчейн-технологий в международной торговле
- 226 **АБДУЖАББОРОВА ФАРЗОНА**
Проблемы миграции Европы в современных
условиях

12.00.12 – KORRUPSIYA MUAMMOLARI

- 233 **SHAXRIYOROV HAMIDULLA SHUXRAT O'G'LI**
Korrupsiyaga oid jinoyatlar uchun javobgarlikka
tortish masalalari bo'yicha amaldagi qonunchilik
muammolari
- 241 **ХАМРАЕВА НОДИРА ГАНДЖАБАЙ КИЗИ**
Некоторые аспекты пенализации уголовных
наказаний за коррупционные преступления
юридических лиц

UDC: 34(045) (5751)

NORMA IJODKORLIGI TUSHUNCHASI VA UNING HUQUQ TIZIMIDAGI O'RNI

Aminov Dalerjon Alisher o'g'li,

Tashkent davlat yuridik universiteti magistranti

e-mail: daleraminov554@mail.ru

ORCID: 0000-0003-1207-8721

Annotatsiya. Mazkur maqolada norma ijodkorligi tushunchasi, uning qonunchilikdagi ahamiyati va u haqida bir qator ilmiy olimlarning fikrlari keltirilgan bo'lib, norma ijodkorligini huquqiy tushunish, ushbu jarayonni samarali amalga oshirishning munozarali muammolari va yechimlari tahlil qilingan. Hozirgi kunga kelib, qonunchilikda islohotlarning markazi bo'lgan norma ijodkorligi jarayonini yangi bosqichga ko'tarish, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida qonunlar, normativ-hujjatlarning o'rnini mustahkamlash, uning samaradorligi va sifatini oshirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu islohotlarni amalga oshirish yo'lida norma ijodkorligining konseptual asoslarini yaratish, ya'ni ushbu hodisaga berilgan aniq huquqiy ta'rif, uni oddiy tilda tushunish va huquqiy asoslarni mustahkamlash ishlari amalga oshirish zarurati tug'ilmoqda. Norma ijodkorligiga ta'rif bera turib bu nafaqat normativ-huquqiy hujjatlar ishlab chiqish jarayoni, balki mamlakatning huquqiy ehtiyojlarini aniqlash va baholash, hujjatlarni huquqiy shakllantirilishi va qabul qilinishini qamrab oluvchi jarayon ekanligi yoritib berilishi kerak. Muallif maqolada ushbularga alohida to'xtalib, o'z navbatida, norma ijodkorligi sohasidagi muammolar va ularni yechishdagi imkoniyatlarni aniqlash imkonini berishini aniq misollar va xorijiy olimlar fikrlari bilan isbotlagan.

Kalit so'zlar: qonunchilik, norma ijodkorligi, huquqiy tushunish, qonun ijodkorligi, normani qo'llash.

ПОНЯТИЕ НОРМОТВОРЧЕСТВА И ЕГО МЕСТО В ПРАВОВОЙ СИСТЕМЕ

Аминов Далержон Алишер угли,

магистрант

Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. В данной статье представлено понятие нормотворчества, его значение в законодательстве, взгляды ряда ученых, анализируется правовое понимание нормотворчества, спорные проблемы и решения для эффективной реализации этого процесса. Сегодня важно поднять на новый уровень процесс нормотворчества, являющийся центром законодательной реформы, усилить роль нормативно-правовых актов в социально-экономической жизни общества, повысить их эффективность и качество. Для реализации этих реформ необходимо создать понятийный аппарат создания норм, то есть четкое правовое определение этого явления, понять его простым языком и укрепить правовую базу. Характеризуя нормотворчество, следует отметить, что это не только процесс разработки нормативно-правовых документов, но и процесс выявления и оценки правовых потребностей страны, правового оформления и принятия документов. Именно этим вопросам автор уделяет внимание в статье, что в свою очередь на конкретных примерах и взглядах зарубежных ученых доказывает возможности выявления проблем в сфере нормотворчества и их решения.

Ключевые слова: законодательство, нормотворчество, правопонимание, нормоприменение.

THE CONCEPT OF NORM CREATIVITY AND ITS PLACE IN LEGAL SYSTEM

Aminov Dalerjon Alisher ugli,

Master's Student at Tashkent State University of Law

Abstract. *This article presents the concept of norm-making, its importance in the legislation, the views of a number of scientists, analyzes the legal understanding of norm-setting, and controversial problems and solutions for the effective implementation of this process. Today, it is important to raise the process of norm creation, which is the center of legislative reform, to a new level, to strengthen the role of laws and regulations in the socio-economic life of society, and to increase its efficiency and quality. In order to implement these reforms, there is a need to create a conceptual framework for the creation of norms, that is, a clear legal definition of this phenomenon, to understand it in simple language and to strengthen the legal framework. While describing the creation of norms, it should be noted that this is not only the process of developing normative and legal documents but also the process of identifying and assessing the legal needs of the country, the legal formation and adoption of documents. The author focuses on these issues in the article, which in turn proves with concrete examples and the views of foreign scholars that it is possible to identify problems in the field of norm-setting and opportunities to solve them.*

Keywords: *legislation, rule-making, legal understanding, law-making.*

Kirish

Hozirgi kunda huquq sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar pirovardida huquqiy davlat qurish va jamiyat hayotini yaxshilash maqsad qilib olingan. Ayniqsa, norma ijodkorligi sohasidagi e'tibor va bu sohadagi kamchiliklarni bartaraf etib qonunlarni inson hayotida ijobiy ta'sirini oshirish kunning dolzarb masalalaridan hisoblanadi. Bu borada 2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida ham qonunchilik sohasiga alohida to'xtalib, qonunlarning ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va sud-huquq islohotlari jarayoniga ta'sirini kuchaytirishga yo'naltirilgan faoliyati sifatini tubdan oshirish davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirishning asosiy vazifalaridan biri etib belgilanishi ushbu sohada ustuvorlik berilganidan dalolatdir. O'z navbatida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o'zining birinchi Oliy Majlisga murojaatnomasidagi nutqida ham ushbu sohaga diqqat qaratdi: "Parlamentimizning eng muhim faoliyati – qonun ijodkorligini ham kamchilik va nuqsonlardan xoli, deb bo'lmaydi. Ochiq tan olish kerak, aksariyat hollarda biron-bir masalani aniq hal etmaydigan, bir-biriga to'g'ri kelmaydigan qonun va qonunosti hujjatlarini qabul qilish amalda ko'plab muammolar tug'dirmoqda" [1].

Darhaqiqat, huquqiy davlat qurish va fuqarolik jamiyatini yaratishning asosiy tamoyillaridan biri bu qonun ustuvorligini ta'minlash va odamlarning qonuniy manfaatlarini himoya qilishdir. Fuqarolarning qonunlarga qat'iy rioya qilishining asosiy omili esa uning aniqligi, puxtaligi va ravshanligidir. Shunday ekan, normativ-hujjatlar konseptual asosi yaratilishi va normalarning istiqbolda odamlar uchun tushunarli, ya'ni yaratilgan huquqiy hujjatlar tili batafsil, ravon bo'lishiga xizmat qiladi.

Darhaqiqat, norma ijodkorligini o'rganish har doim nazariy tadqiqotlarning yetakchi yo'nalishlaridan biri bo'lib kelgan, bu so'nggi yigirma yil ichida mahalliy huquqshunoslikda paydo bo'lgan ko'plab ilmiy ishlardan dalolat beradi. Hozirgi davr qonun ijodkorligi ishlari hajmining sezilarli darajada o'sishi, qonun ijodkorligi subyektlari doirasining kengayishi, uning turli usullari va turlaridan foydalanish bilan bog'liq. O'z navbatida, norma ijodkorligi borasida izlanish olib borgan olimlar sohadagi muammolarni bir yechimi o'laroq norma ijodkorligi tushunchasi va uning ilmiy-amaliy ahamiyatini o'rganish to'g'risida xulosalar keltirishgan. Shu bilan birga, huquqiy hujjatlarini ishlab chiqish jarayonida norma ijodkorligining o'rni va ularning samaradorligini oshirishning ilmiy-nazariy asoslarini chuqur tahlil etish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Norma ijodkorligini o'zbek olimlaridan M.K. Najimov [2, 6-b.], X.T. Odilqoriyev, Sh.A. Sa'dullayev kabi olimlar tadqiq qilishgan.

Xorijiy olimlardan Y.G. Arzamasov [3], A.K. Timoshkin [4], R.V. Nagiyeva [5, 20-b.], V.V. Chernikov [6], N.M. Konin [7, 140-b.], M.N. Kozyuk [8, 36-b.], M.A. Matveyeva [9, 114-115-b.], A.A. Ushakov [11, 12-13-b.] kabilar ilmiy o'rganishlar olib borishgan.

Material va metodlar

Ma'lumki, norma ijodkorligi davlat va jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy sohalarida sifatli va samarador islohotlar amalga oshirishda alohida o'rin tutadi. Bu borada amalga oshirilgan ilmiy-huquqiy tadqiqotlari qatorida o'zbek olimlarining norma ijodkorligiga bergan ta'rifini xorijiy olimlar bilan qiyoslash orqali qonunchilikda aniq yuridik izohning keltirilishi zarurati paydo bo'lmoqda. Ushbu sohani keng tatbiq etgan huquqshunos olim M.K. Najimov fikricha norma ijodkorligini uch tomonlama tavsiflash mumkin: 1) sof amaliy; 2) sof ilmiy; 3) ilmiy-amaliy (metodologik). Olim amaliy jihatiga to'xtalib yondashib faqat normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqishga qaratilgan amaliy faoliyati bilan tavsiflanishini ta'kidlagan [2].

Norma ijodkorligiga nazariy-huquqiy yondashib ta'rif berish va uning fundamental asoslarini o'rgana turib, biz bu sohada muvaffaqiyatli islohotlar amalga oshira olamiz. So'zimiz isbotida Yuridik fanlar professori Y.G. Arzamasov fikrini inobatga olamiz: "Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini professional ishlab chiqish uchun, birinchi navbatda, norma ijodkorligining mohiyatini, uning vazifalari, usullari, turlarini chuqur anglab olish lozim; ikkinchidan, qoida yaratish texnikasi asoslari bo'yicha ham nazariy bilimlarga ega bo'lish va yuqori sifatli normativ-huquqiy hujjatlarni tayyorlash bo'yicha amaliy ko'nikmalarga ega bo'lish ham muhimdir [3]".

Tadqiqotchi olimlardan A.V. Timoshkin nazarida norma ijodkorligi faoliyati ancha murakkab moddiy va protsessual jarayon bo'lib, u ham huquqiy, ham moddiy ma'noga egadir. Asosiy mazmuni uning moddiy-huquqiy mohiyatini mas'ul tomonidan qonun ishlab chiqish, o'zgartirish va bekor qilishga qaratilgan jarayon deb ta'rif bergan [4]. Yangi davr olimalaridan R.V. Nagiyeva o'z asarida huquqning asosiy elementi – bu qonun ustuvorligi, ya'ni davlat tomonidan o'rnatilgan yoki ruxsat etilgan va u tomonidan kafolatlangan umume'tirof etilgan xulq-atvor qoidasi. Ushbu xulq-atvor qoidalarini shakllantirishning yakuniy bosqichi sifatida norma ijodkorligi jarayonida amalga oshiriladi [5].

Rossiyalik huquqshunos olim V.V. Chernikov ta'kidlashicha norma ijodkorligi davlat tomonidan tashkil etilgan jamiyatning obyektiv ravishda talab qilinadigan atributidir. U davlat va xalqaro hamjamiyatning huquqiy siyosati bilan belgilanadigan insoniyat mavjudligining tarixiy rivojlanish qonuniyatlari tufayli inson hayotining deyarli barcha sohalarini tartibga solishda tabiiy ijtimoiy ehtiyojlar bilan yuzaga keladi. Norma ijodkorligining maqsadi sifatida doimo mavjud ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solishni takomillashtirish, ularni samarali rivojlantirish, huquqiy uyg'unlikni izlash va ijtimoiy manfaatlar uyg'unligini ta'minlashdan iborat. Bularning barchasiga ba'zi bir umumiy majburiy xulq-atvor qoidalarini yaratish, o'zgartirish yoki bekor qilish yo'li bilan erishiladi [6].

Rus tadqiqotchisi N.M. Konin norma ijodkorligiga ta'rif bera turib "boshqaruv shakli – davlat apparatining tegishli bo'limlari tomonidan belgilangan tartibda ko'rib chiqiladigan va tasdiqlanadigan qoidalar, nizomlar, nizomlar subyektlarga nisbatan belgilanishi, natijada ular huquqiy normalar, talablar qoidalariga aylanishida namoyon bo'ladigan harakatlar natijasidir [7]", deydi.

Yana bir yondashuvni ta'kidlab o'tish kerak. Olim M.N. Kozyuk ta'kidlaganidek: "Norma ijodkorligi nafaqat sof huquqiy faoliyat sifatida, balki ijtimoiy boshqaruv faoliyati doirasida tushuniladi, chunki ijtimoiy ko'rsatmalar nafaqat huquqiy, balki ma'naviy-axloqiy ko'rinishni ham oladi [8]".

M.A. Matveeva norma ijodkorligida jamiyat shakllanishi va progressiv rivojlanishining barcha bosqichlarida parallel ravishda rivojlanadigan va bir-biri bilan o'zaro ta'sir qiluvchi ikkita element muhim ekanligini ta'kidlaydi: umumiy-ijtimoiy va maxsus-huquqiy. Davomi, sifatida muallif ushbu jarayonning ikki rivojlanish bosqichini aytib o'tadi:

1) yangi ijtimoiy asoslarni yaratish va mavjudlarini rivojlantirish jihatidan jamiyat tomonidan xulq-atvorni tartibga solish (haqiqiy qoidalarni ishlab chiqish yoki tor ma'nosida qoida yaratish);

2) davlat hokimiyati faoliyatining o'sishi va huquqni rivojlantirishga oqilona munosabatda bo'lish natijasida huquqiy norma shakllanishining rivojlanishi [9].

Xulosa qilib norma ijodkorligiga ta'rif berishda rus olimlar fikrlari ayni haqiqatga yaqin ekanligini ko'rishimiz mumkin. Chunki, bu fenomen nafaqat normativ-huquqiy hujjatlar ishlab chiqish jarayoni, balki jamiyat va davlatni tartibga solishning ijtimoiy-huquqiy asoslarini, xulq-atvor qoidalarini yaratish va mustahkamlash hodisasidir. Bundan tashqari norma ijodkorligiga yuridik ta'rif berishda normativ-huquqiy hujjatlar matnida norma yaratuvchi tomonidan qonunchilik tizimining elementlarini yaratish, o'zgartirish va shakllantirish hamda takomillashtirish bo'yicha chiqarilgan huquq normalarini ifodalash uchun norma yaratuvchi tomonidan qo'llaniladigan tamoyillar, usullar va vositalar tizimi sifatida aytish mumkin.

Norma ijodkorligiga ta'rif berish muhimligini va bu orqali sohadagi kamchiliklarni aniqlash va yechim topishda yana bir qator olimlar yakuniy xulosaga kelishgan. Ayniqsa, bu borada huquqshunos olim Y.G. Arzamasov fikri e'tiborga molikdir: "Bu jarayonning mohiyatini anglash orqali biz norma ijodkorligi rivojlanishining ikkita asosiy yo'lini ajratamiz: 1) jamiyat tomonidan xulq-atvorni tartibga solishning yangi va mavjud ijtimoiy asoslarini yaratish (to'g'ri tartibga solish yoki tor ma'noda qoidalar yaratish); 2) davlat hokimiyati faoliyatining kuchayishi va huquqni rivojlantirishga oqilona munosabatda bo'lish natijasida huquqiy norma ijodkorligining rivojlanishini kuzatishimiz mumkin [10]".

Hozirgi davrga kelib, norma ijodkorligi sohasiga alohida institutsional fan sifatida olimlar tomonidan qaralib, bu sohani yuridik fanlar qatorida qo'shish talabi kuchaymoqda. Huquqshunos olim A.A. Ushakovning fikricha, norma ijodkorligini bir tomondan qonunchilikni optimallashtirishga qaratilgan amaliy faoliyat sifatida ko'rib chiqish lozim bo'lsa, ikkinchi tomondan unga ushbu faoliyatni o'rganuvchi ilmiy fan sifatida qarash joizdir [11]. Norma ijodkorligi bo'yicha tadqiqotlar olib brogan olim M.K. Najimov Norma ijodkorligi fan sifatida o'z ichiga quyidagi institutlarni qamrab olishini ta'kidlaydi:

- norma ijodkorligining asosiy tamoyillari;
- huquqiy tartibga solish zaruriyatini anglashning asosiy uslublari va uni amalga oshirish vositalari;
- normativ-huquqiy hujjatlarning matnida huquq normalari mazmunini ifoda etishning texnik usullari va qoidalari;
- normativ-huquqiy hujjatning mantig'i, tili va uslubi;
- qonunchilik tizimini shakllantirishga ta'sir o'tkazuvchi asosiy tashqi omillar kabilari [12].

Yuqoridagi ilmiy-nazariy tahlildan xulosa qilsak, norma ijodkorligi jarayoni to'xtab qolgan hodisa emas. Balki, bu doimiy o'zgarishga va isloh etilishga moyil bo'lgan muhim institut hisoblanadi. Bundan kelib chiqib, ilmiy ta'rif berganda norma ijodkorligi nafaqat normativ-huquqiy hujjatlarni yaratish, balki jamiyat va davlatning huquqiy ehtiyojlarini aniqlash va baholash, vakolatli subyektlar tomonidan huquqiy hujjatlarini belgilangan tartibda shakllantirilishi va qabul qilinishini qamrab oluvchi jarayonidir.

Hozirgi kunga kelib norma ijodkorligida uchraydigan muammolar va ularning yechimi yuzasidan davlatimizda olib borilayotgan islohotlar va ularning keng tatbiq etilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bizning nazarimizda, ushbu sohadagi umumiy muammolar sifatida quyidagilarni sanashimiz mumkin:

- aniq ilmiy nazariy tahlillar bilan birgalikda norma ijodkorligini amaliyotini yuritish muammosi, ya'ni hozirgi kunda norma ijodkorligi sohasidagi o'zgarishlar amalga oshirish amaliyotning nazariya bilan birgalikda amalga oshirilishi;
- jarayonlarning aksariyati rasmiy ravishda amalga oshirilishi, bu orqali esa barcha jarayonlarning maqsadga erishishi;
- boshqaruv va siyosiy qarorlarni qabul qilishda muvozanatni saqlash tamoyili buzilishi;
- alohida protseduralar bir-birini takrorlashi, bu esa fuqarolar tomonidan samarasiz amal qilish olib kelishi;
- normativ hujjatni ishlab chiqishda resurslarning noto'g'ri taqsimlanishi va buning oqibatida mablag'larni keng sarflanishi;
- norma-ijodkorligi tashabbusiga ega bo'lgan kadrlar va ekspert salohiyatining kamligi va bu o'z navbatida normalarning sifatiga ta'sir etishi;
- fuqarolarning norma ijodkorligida ishtirok etishdan manfaatdor emasligi;
- tartibga solishda qator kamchilik va muammolarning mavjudligi kabilardir.

Tadqiqot natijalari

Yuqorida sanab o'tilgan muammolarga yechim sifatida quyidagi tavsiyalarni keltirishimiz mumkin:

1. Norma ijodkorligini nazariy-huquqiy jihatdan o'rganish va yuqorida keltirilgan yuridik ta'rif keltirish. Ya'ni norma ijodkorligi nafaqat normativ-huquqiy hujjatlarni yaratish, balki mamlakatning huquqiy ehtiyojlarini aniqlash va baholash, vakolatli subyektlar tomonidan huquqiy hujjatlarini belgilangan tartibda shakllantirilishi va qabul qilinishini qamrab oluvchi jarayonidir.

2. Norma ijodkorligi subyektlari davlat xizmatchilarini kompleks tayyorlash amaliyotini joriy etish. Bu kabi tajriba, ayniqsa, Amerika Qo'shma Shtatlarida rivojlangan bo'lib, Virginiya va Vanderbilt universitetlarida maxsus markazlar joriy etilgan. Ushbu markazlarning maqsadi qonunchilik subyektlarini qonun ishlab chiqishi ko'nikmasini rivojlantirish va samarali normativ-huquqiy hujjatlar ishlab chiqishga qaratilgan hisoblanadi [13].

3. Norma ijodkorligi bo'yicha ixtisoslashtirilgan ta'lim tizimini joriy etish. Mamlakatimizda ushbu sohadagi islohotlar jadal sur'at olayotgan bir paytda kadrlar masalasi muhim vazifa bo'lib qolmoqda. Ushbu taklif universitetlarda, xususan, yuridik ta'limga ixtisoslashgan o'quv yurtlarida norma ijodkorligini fan sifatida keng o'rgatish orqali salohiyatli kadrlar masalasiga yechim bo'la oladi. Bu borada huquqshunos Y.G. Arzamasov fikriga ko'ra: "Bugungi kunda huquqshunoslar, davlat xizmatchilar, turli darajadagi deputatlar oldida muhim masala turubdi. Bu, o'z navbatida, maxsus bilim olish masalasidir. Yuridik o'quv yurtlarida fan sifatida norma ijodkorligining o'tilishi va bu jabhada olingan bilim kelajakda huquqiy tartibga solish samaradorligiga ta'sir ko'rsatadigan shakl va mazmun jihatidan yuqori sifatli huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish imkonini beradi [14].

4. Muayyan tartibga solish bo'yicha xarajatlar, shu jumladan tartibga solish subyektlarning xarajatlari ixchamlashtirish. 2018-yilda qabul qilingan "Norma ijodkorligi faoliyatini takomillashtirish konsepsiyasida" "Aqlli tartibga solish" modelini qo'llash amaliyoti keltirilgan. Bu taklif orqali kelajakda, ushbu modelni olimlar tomonidan keng o'rganib, amaliyotda elementlarini joriy etish bilan ijro xarajatlari keskin kamayishi kutilmoqda. Ma'lumot o'rnida, Adliya vazirligi tomonidan o'tkazilgan seminarda Doktor Kordova ma'ruzasida qonunchilik hujjatlari ta'sirini baholash muayyan qonunchilik hujjatini qabul qilish orqali jamiyat hayotida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan salbiy oqibatlarni va tadbirkorlarga ortiqcha xarajat yuklashning oldini olishga, eng muhimi kam xarajat evaziga samarali, natijador va, albatta, barcha uchun maqbul bo'lgan qarorlar qabul qilishga imkoniyat yaratishini ta'kidlab o'tdi. Seminarda, "aqlli tartibga solish" usullarini qo'llash hisobiga Germaniyada 2000–2005-yillarda 10,5 milliard yevro, Avstraliyada 2013–2015-yillarda 4,5 milliard avstraliya dollari, Rossiyada 2020-yilda 2,5 trillion rubl miqdoridagi ortiqcha xarajatlarning oldi olinganligi ta'kidlab o'tildi [15].

5. "Aqlli tartibga solish" bo'yicha tartib-taomillar ishlab chiqish va ularning samaradorligini oshirish. Bizning fikrimizcha, bu g'oya orqali biz qonunchilik tashabbusidan tortib, loyiha qabul qilishgacha bo'lgan jarayonni samarali tartibga solish bo'yicha dasturilamal qilish imkoniga ega bo'lamiz.

Demak, ushbu takliflar asosida biz boshida to'xtalib o'tgan muammolarga fundamental yechim bo'la olishi natijasida ushbu jarayonning sifatini oshirish va samarali tartibga solish imkoniyati vujudga keladi. Bundan tashqari, norma ijodkorligini nazariy-huquqiy va konseptual asoslarini o'rganish orqali norma ijodkorligi munosabatlarini aniqlash va tadqiq qilish, ularni huquqiy tartibga solishni takomillashtirish yo'llarini belgilash imkoni paydo bo'ladi.

Xulosalar

Mamlakatimizda qonunchilik sohasida ham "inson qadri uchun", "inson manfaatlari – hamma narsadan ustun" prinsipining namoyon bo'lishi tom ma'noda norma ijodkorligi sohasida ham o'z aksini ko'rsatmoqda. Bu, o'z navbatida, sohada chuqur ilmiy-huquqiy izlanishlar olib boorish, ayniqsa, qonunchilikda huquqiy ta'rifini mustahkamlash va qo'llash zaruriyatini tug'dirmoqda. Bu masalani hal etmasdan biz islohotlarni yangi bosqichga ko'tara olmasligimizni ham yuqorida ta'kidlab o'tdik. Yuqorida sanab o'tilgan muammolar va yechimlar bilan birga, o'z navbatida, ularni amalga oshirish bo'yicha aniq mexanizmlarini joriy etish va hayotga tatbiq etishni kun tartibiga kirishi lozim. Bu orqali norma ijodkorligini keng ta'riflanishi va qonunchilikdagi o'rnini yangi tartibda mustahkamlash imkoni vujudga keladi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad normativ-huquqiy hujjatlarni amalga qo'llash samaradorligini oshirish, pirovardida bu faoliyat sifatini oshirish imkonini yaratadi.

REFERENCES

1. Mirziyoyev Sh. Oliy Majlisga murojaatnomasidagi nutqidan [From the speech in address to the Oliy Majlis]. 2017, 22-dekabr.
2. Najimov M.K. Norma ijodkorligi. [Norm creativity] Darslik. Tashkent, TDYU, 2018, p.6.
3. Arzamasov Y.G. Organizatsionniye i didakticheskiye problemi prepodavaniya kursa "Normografiya: teoriya i metodologiya normotvorchestva". [Organizational and didactic problems of the course "Normography: Theory and Methodology of Rulemaking"]
4. Timoshkin A.K. Ponyatiye i znachenije vedomstvennogo normotvorchestvo. Mir nauki i obrazovaniy. [Understanding and understanding of departmental normotvorchestvo. The world of science and education]. 2018, № 3 (15).
5. Nagiyeva R.V. Osnovi normotvorchestva: uchebnoye posobiye [Fundamentals of Rulemaking: A Study Guide]. RTA, Rossiyskaya tamojennaya akademiya, 2013, p. 20.
6. Chernikov V.V. Normotvorchestvo [Norm creativity]. 2-ye izdaniye. Nauchno-prakticheskoye posobiye, 2019.
7. Konin N.M. Administrativnoye pravo Rossiy. [Administrative law of Russian]. M., Velbi; Prospekt, 2006, p. 140.
8. Kozzyuk M.N. Yuridik texnikaning asosiy tushunchalari Volgograd davlat universiteti byulleteni. [Basic concepts of legal techniques Bulletin of Volgograd State University] To'plam, 2010, No. 2 (13), pp. 36-37.
9. Matveyeva M.A. Teoriya pravotvorchestva; metodologicheskiye n konseptualniye aspekti [Theory of lawmaking; methodological and conceptual aspects]. 2017, pp. 114-115.
10. Arzamasov Y.G. Organizatsionniye i didakticheskiye problemi prepodavaniya kursa "Normografiya: teoriya i metodologiya normotvorchestva" [Organizational and didactic problems of the course "Normography: Theory and Methodology of Rulemaking"].
11. Ushakov A.A. Soderjaniye i forma v prave i sovetskoye pravotvorchestvo. [Content and form in law and Soviet law-making] Avtoref. diss. ... dok. yurid. Nauk. 1970, pp. 12-13.
12. Najimov M.K. Norma ijodkorligi. [Norm creativity] Darslik. Tashkent, TDYU, 2018, p. 6.
13. Available at: <https://thelawmakers.org/short-courses/>.
14. Arzamasov Y.G. Organizatsionniye i didakticheskiye problemi prepodavaniya kursa "Normografiya: teoriya i metodologiya normotvorchestva" [Organizational and didactic problems of the course "Normography: Theory and Methodology of Rulemaking"].
15. Available at: <https://zamin.uz/uz/jamiyat/91010-qonunchilik-hujjatlarini-ishlab-chiqish-hamda-qabul-qilishda-sifat-va-samaraga-etibor-berish-ortiqcha-xarajatlardan-voz-kechish-lozim.html/>.

YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

MAXSUS SON

Mas'ul muharrir: D. Xudoynazarov

Muharrirlar: Sh. Jahonov, K. Abduvaliyeva,
F. Muhammadiyeva, Y. Yarmolik

Texnik muharrirlar: U. Sapayev, D. Rajapov
Tahririyat manzili:
100047. Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35.
Tel.: (0371) 233-66-36, 233-41-09.
Faks: (0371) 233-37-48.

Web-sayt: www.tsul.uz
E-mail: lawjournal@tsul.uz
E-mail: tn.tdyu@mail.ru
Obuna indeksi: 1387.

Jurnal 20.06.2022-yilda tipografiyaga topshirildi.
Qog'oz bichimi: A4. Shartli 15,24 b.t. Adadi: 100.